

MAMLAKATIMIZDA TA'LIM ISLOHOTLARI UCHINCHI RENOSANS UCHUN TAMAL TOSHIDIR

Rahmonova Zulfiya Bahromovna

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi “Umumta’lim fanlari” kafedrasи
yuristlar uchun ingliz tili fani o‘qituvchisi Telefon: +998995111402

Zrahmonova0189@gmail.com

Annotation:

ushbu maqolada mamlakatimizda ta’lim sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, maktabgacha ta’lim, o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus professional ta’lim hamda oliy ta’lim tizimidagi amalga oshirilayotgan say-harakatlarning ahamiyati, qabul qilingan qonunchilik hujjatlari haqida qisqacha mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus (professional) ta’lim, oliy ta’lim, nodavlat ta’lim, ta’lim – fan – ishlab chiqarish “zanjiri”.

Аннотация:

в данной статье даны краткие размышления о проводимых в нашей стране реформах в области образования, о значении проводимых действий в системе дошкольного образования, среднего образования, среднего специального профессионального образования и высшего образования, о принятых законодательных актах.

Ключевые понятия: дошкольное образование, среднее образование, среднее специальное (профессиональное) образование, высшее образование, негосударственное образование, учебно – научно – производственная “цепочка”.

Abstract:

This article provides brief reflections on the ongoing reforms in the field of education in our country, on the importance of ongoing actions in the system of preschool education, secondary education, secondary specialized vocational education and higher education, on the adopted legislative acts.



Key concepts: preschool education, secondary education, secondary specialized (vocational) education, higher education, non-governmental education, educational, scientific and industrial “chain”.

Bizga ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Eng quvonarlisi, ushbu islohotlarning katta qismini ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etmoqda. Keyingi vaqtarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta'lim tizimidagi islohotlar va amaliy chora-tadbirlar quyidagi yo'nalishlar

- 1) maktabgacha ta'lim sohasida;
- 2) umumiyo'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- 3) oliy ta'lim;
- 4) oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- 5) kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarda olib borilmoqdi.

So'ngi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish va modernizatsiya qilish bo'yicha bir qancha farmon va qarorlar qabul qilindi.

Ayniqsa bu borada, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – “Ta'lim to'g'risida”¹gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Shuningdek, Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilarini tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi.²

¹O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>.

² S. Maxmudov. Ta'lim tizimini isloh etish – islohotlarning bir qismi sifatida. <https://aniq.uz/yangiliklar/talim-tizimini-isloh-etish-islohotlarning-bir-qismi-sifatida>.

Olib borilayotgan islohotlarning maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidan boshlanishi ham mazkur sohaga alohida e'tibor berilayotganligidan dalolatdir. Hozirgi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida dastlabki bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyos bo'lib, sohaga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratishi haqiqatdir. Mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asosi sifatida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"³gi Qonunning qabul qilinganligidir. Ushbu Qonunda maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari va boshqa shunga o'xshash masalalar belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari o'rta ta'lim hamda professional ta'lim tizimida tizimni isloh qilish uchun qabul qilingan me'yoriy hujjatlar va amalga oshirilayotgan say-harakatlar ham beqiyosdir. Bu yo'nalishda o'quv dasturlarini rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribalari asosida yangilash masalasigiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sod Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar

³ O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun. <https://lex.uz/docs/-4646908>.



belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'limgar jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda davlat rahbari tomonidan ta'limga berilayotgan e'tibor barobarida ta'limgar berayotgan oliy ta'limgar muassasalarini tadqiqot universitetlariga aylantirish masalasi muhim ahamiyatga egadir. Zero tadqiqotlar universitetini yaratish eng asosiy maqsad emas yoki urfga berilish ham emas. Bu ta'limgar va ilmiy faoliyatni innovatsion rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochish, deganidir. Dunyo tajribasi ko'rsatishicha, tadqiqotlar universitetini shakllantirishning muhim omili uning ko'p funksiyali bo'lishi, ta'limgar – fan – ishlab chiqarish "zanjiri"da innovatsion jarayonlarning qo'llab-quvvatlanishi bilan bog'liq.⁴

Dunyodagi aksariyat nomdor tadqiqotlar universitetlari insoniy zahiraning yuqori sifati, ya'ni: professor-o'qituvchilar tarkibining malakasini doim oshirib borish; ish beruvchilar hamda ilmiy ishlanmalardan foydalanuvchilar bilan hamkorlik qilib, bilimlar va ilg'or innovatsiyalarni keng yoyish; muassasaning o'z zamonaviy ilmiytadqiqot hamda tajriba o'tkazish infratuzilmasiga ega bo'lishi kabi ko'rsatkichlar bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, unda akademik, moliyaviy, tashkiliy hamda hodimlar masalasidagi mustaqillik nuqtai nazaridan avtonom boshqaruvi modeli ham mavjud bo'lishi ham talab qilinadi.

Ta'limgar – fan – ishlab chiqarish "zanjiri"ning samarali faoliyat yuritishi o'z o'zidan nafaqat mamalakat ilmiy salohiyatini yuksaklarga ko'taradi, balki iqtisodiy taraqqiyoti hamda fuqarolar farovonligi uchun ham zamin yaratadi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, ta'limgar sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'limgar to'g'risida"gi Qonuni.

<https://lex.uz/docs/5013007>.

2. S. Maxmudov. Ta'limgar tizimini islohot etish – islohotlarning bir qismi sifatida.

<https://aniq.uz/yangiliklar/talim-tizimini-islohot-etish-islohotlarning-bir-qismi-sifatida>.

⁴ O'. Umurzoqov. Ta'limgar tizimi islohotlari O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratadi.

<https://xs.uz/uzkr/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujgonish-davri-pojdevorini-yaratadi>.

Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th April, 2024

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

- 
3. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun. <https://lex.uz/docs/-4646908>.
 4. O‘. Umurzoqov. Ta’lim tizimi islohotlari O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri poydevorini yaratadi. <https://xs.uz/uzkr/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujgonish-davri-pojdevorini-yaratadi>

E-Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

E- CONFERENCE
SERIES